

SANOAT TARMOG‘I VA IQTISODIY SAMARADORLIK
МЕХАНИЗМЛАРИ

ПРОМЫШЛЕННОСТЬ И МЕХАНИЗМЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
ЭФФЕКТИВНОСТИ

Raximova Mushtariybegim Muxammadg‘olib qizi

Iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinib, uning iqtisodiy tizimdagi faoliyat turlarini, tarmoqlararo ta’sir chegaralari orqali va idoraviy munosabatlardagi tuzilma funksiyalarini nazariy jihatdan tadqiq qilish hamda samaradorligiga ta’sir qiluvchi yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit sozlar. Sanoatni rivojlantirish, resurslar transformatsiyasi, iqtisodiy o‘shish va foyda, sanoat samaradorligi, ilmiy innovatsiya, industrial siyosat mexanizmlari.

Аннотация. В статье анализируются механизмы повышения экономической эффективности промышленного сектора, теоретически изучаются виды деятельности в экономической системе, структурные функции сектора через границы межотраслевого влияния и ведомственных отношений, а также рассматриваются способы их воздействия на его эффективность.

Ключевые слова. Промышленное развитие, трансформация ресурсов, экономический рост и прибыль, эффективность промышленности, научные инновации, механизмы промышленной политики.

Global raqobatning kuchayishi, resurslar uchun kurash, energiya narxlarining beqarorligi va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur‘atlarining jadallashuvi sharoitida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi har bir davlatning iqtisodiy mustaqilligi va faol tashqi raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda jahon miqyosida strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajada industriallashgan mamlakatlar iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqaror saqlab, aholi bandligi va turmush farovonligini ta’minlay olishi zarur. Mamlakatda sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish yo‘llariga e’tibor qaratilgan omillar mavjud hamda ularni sohaga oid dolzarblik jihatlari borasida tadqiqotlar olib borilar ekan biz maqolada iqtisodiy samaradorlik mexanizmlariga e’tibor qaratamiz.

Jamiyatda sanoat – bu alohida tarmoq emas, balki resurs transformatsiyasining markaziy bo‘g‘ini sifatida barcha real sektor sohalari bilan ko‘pqirrali o‘zaro ta’sirda

rivojlanadigan tizimdir. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy samaradorlik faqat ichki ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yoki moliyaviy qaytarim orqali emas, balki umummilliy iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan ham baholanishi talab etiladi .

Mazkur tizimli yondashuvni chuqurlashtirish uchun klaster nazariyasi mustahkam ilmiy poydevor yaratadi. M.Porter tomonidan ilgari surilgan klasterlashuv konsepsiyasiga ko'ra, sanoat samaradorligi jamoaviy innovatsiya, infratuzilma moslashuvchanligi va kadrlar salohiyati birligida yuzaga keladi . Ushbu qarash sanoat subyektlari o'rtasidagi o'zaro funksional aloqalarni, texnologik tarqalishni va lokal raqobat muhitini tizimli ravishda nazariylashtiradi. Klaster faoliyati natijasida ishlab chiqarish ko'lamini kengayadi, xarajatlar qisqaradi va mahalliy innovatsiyalar asosida o'zaro sinergiya shakllanadi . Bu holat sanoat samaradorligini ichki miqyosda emas, balki hududiy va tarmoqlararo miqyosda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, industrial siyosat nazariyalari sanoat samaradorligini davlat va bozor munosabatlari chorrahasida talqin qiladi. Bunda davlatning rol va vakolatlari, tarmoqlararo subsidiyalar, soliq imtiyozlari va tartibga soluvchi mexanizmlar asosida samaradorlikni norma sifatida shakllantirish amaliyoti ilmiy asoslanadi . Ta'kidlash lozimki, sanoat tarmoqlari uchun industrial siyosat elementlari nafaqat samaradorlikni oshirish, balki texnologik uzilishlar va xalqaro raqobatbardoshlik salohiyatini ta'minlash uchun ham metodologik poydevor vazifasini bajaradi .

Yana bir nazariy nuqta – bu komparativ ustunlik nazariyalaridan foydalanish zarurligidir. Sanoat iqtisodiyotida qanday mahsulotlar resurs jihatdan samarali, texnologik jihatdan eksportbop va bozor yoritilishi nuqtai nazaridan ehtimoliy raqobatbardosh bo'lsa, aynan shu segmentlarga maqsadli strategiyalar yo'naltirilishi zarur.

Komparativ ustunlik nazariyasi buni ratsional resurs taqsimoti asosida asoslaydi. Ushbu yondashuv, tarmoqni tanlashdan tortib, texnologik modernizatsiyagacha bo'lgan har bir mexanizmlar qarorining iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan optimalligini tavsiya qiladi va ta'kidlaydi.

Ilmiy-metodologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat samaradorligini baholashda yagona ko'rsatkich yoki faqat moliyaviy tahlil bilan cheklanish katta ilmiy xato bo'ladi . Aksincha, samaradorlikning tarmoqlararo diversifikatsiyasi, klasterlashuv darajasi, texnologik adaptatsiya va mehnat unumdorligi bilan o'zaro bog'liqligi integral yondashuv talab etadi. Bunday tizimli modellashtirish orqali sanoat tarmog'ining nafaqat ichki imkoniyatlari, balki uning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi transmissiya funksiyasi ham to'liq ochib beriladi .

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda nazariy yondashuvlarning xilma-xilligi, iqtisodiyotdagi tarmoqlararo aloqalar va resurslardan foydalanishning ko'p o'lchovli xarakteri mazkur tushunchaning universal model yordamida baholanishini mushkullashtiradi. Shu sababli, sanoat iqtisodiyoti kontekstida iqtisodiy

samaradorlikni ko'rsatuvchi parametrlarni aniqlashda turli nazariy maktablarga asoslangan, funktsiyaviy maqsadi va hisob-kitob usuliga ko'ra farqli, biroq uyg'unlashgan modellar sistemasi qo'llaniladi. Quyidagi jadvalda sanoat sohasida samaradorlikni baholashda keng qo'llanilayotgan ilmiy asoslangan modellar va ularning o'ziga xos nazariy poydevori, baholash mezonlari hamda amaliyotdagi qo'llanish imkoniyatlari tizimlashtirilgan. Bu modellar sanoatning faoliyat samaradorligini faqat natijaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki innovatsion, ijtimoiy, ekologik va strategik jihatlarini ham hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi.

1.1-жадвал

Иқтисодий самарадорликни баҳолашнинг назарий моделлари¹

№	Модел номи	Назарий асос	Асосий болаш мезонлари	Қўлланил иш соҳаси	Саноатдаги аҳамияти
1.	Cobb–Douglas ишлаб чиқариш функцияси	Неоклассик ўсиш назарияси (Солоу, Ромер)	Капитал, меҳнат, умумий фактор унумдорлиги (TFP)	Ишлаб чиқариш жараёнини моделлаш	Саноат ишлаб чиқариш самарадорлигини ресурслар билан боғлайди
2.	АНР – Иерархияли таҳлил усули	Тўпламли қарор қабул қилиш назарияси	Кўп мезонли рейтинглар, мутахассис баҳолари	Интеграл баҳолаш, танловларн и тартиблаш	Саноат самарадорлигига таъсир қилувчи кўп омилли таҳлил
3.	TOPSIS – Самарадорликка яқинлашиш усули	Мазмуний масофавий таҳлил (Hwang & Yoon, 1981)	Идеал нуқтадан масофа, нормализация ланган рейтинг	Кўп параметрли баҳолаш	Саноат корхоналарини ўзаро солиштириш ва рейтинглаш учун қулай
4.	DEA – Маълумотли самарадорлик таҳлили	Чизиқли дастурлаш, самарали чегара назарияси	Техникавий самарадорлик, масштаб самарадорлиги	Микро даражадаги самарадорлик таҳлили	Корхоналарни “энг самарали” билан таққослаб баҳолаш имкони
5.	ESG индекс моделлари	Барқарор ривожланиш назарияси	Экологик, ижтимоий, бошқарув кўрсаткичлари	Яшил саноат, корпоратив стратегиялар	Саноат самарадорлигини барқарор ривожланиш мезонлари орқали баҳолаш
6.	ROI/ROA –	Традицион	Инвестиция	Корхона	Иқтисодий

¹ Ўрганилган манбалар асосида муаллиф томонидан тизимлаштирилган.

	Классик молиявий моделлар	молия назарияси	қайтарими, активлар унумдорлиги	молиявий самарадорлиги	натижаларни капитал билан боғлаб баҳолаш
7.	TFP – умумий фактор унумдорлиги индекси	Эндоген ўсиш назарияси	Меҳнат ва капитални ҳисобга олган инновация унумдорлиги	Макро ва мезо даража	Технологик самарадорлик ва инновация таъсирини ўлчайди
8.	SWOT–SAMARADOR-LIK таҳлили	Иқтисодий стратегик таҳлил назарияси	Ички ва ташқи имконият ва хавфлар	Тармоқ ривожланиши, рақобат устунлиги	Корхона ёки тармоқ самарадорлиги учун стратегик йўналишларни аниқлаш

1.1-jadval asosida Iqtisodiy samaradorlikni baholashning nazariy modellari quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi sanoatning Neoklassik o‘shish nazariyasi sifatida tahlil qilinadi (Solou, Romer) Kapital, mehnat, umumiy faktor unumdorligi (TFP)Ishlab chiqarish jarayonini modellashtirish, bunda: Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini resurslar bilan bog‘laydi va tahlil qiladi.

2. AHP – Iyerarxiyalik tahlil usuli tahlili beriladi . Bunda: To‘plamli qaror qabul qilish nazariyasi va Ko‘p mezonli reytinglar, mutaxassis baholari, jumladan, Integral baholash, tanlovlarni tartiblash Sanoat samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘p omilli tahlil va boshqalardan iborat.

3.TOPSIS – Samaradorlikka yaqinlashish usuli: Mazmuniy masofaviy tahlil (Hwang & Yoon, 1981) Ideal nuqtadan masofa, normalizatsiyalangan reyting bu jarayon: Ko‘p parametrlilik baholash, Sanoat korxonalarini o‘zaro solishtirish va reytinglash uchun qulay mexanizm sifatida.

4.DEA – Ma’lumotli samaradorlik tahlili mexanizmlari. Bunda:

Chiziqchi dasturlash, samarali chegara nazariyasi, jumladan, Texnikaviy samaradorlik, masshtab samaradorligi va Mikro darajadagi samaradorlik tahlili hamda Korxonalarni “eng samarali” lari bilan qiyosiy taqqoslab, baholash imkonini beradi.

5.ESG indeks modellari tizimi, bunda:Barqaror rivojlanish nazariyasi, Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv ko‘rsatkichlari jarayonlari hamda Yashil sanoat, korporativ strategiyalar va Sanoat samaradorligini barqaror rivojlanish mezonlari orqali baholash omillari tavsiya qilinadi.

6.ROI/ROA – Klassik moliyaviy modellar, jumladan, Traditsion moliya nazariyasi, Investitsiya qaytarimi va aktivlar unumdorligi, shuningdek Korxonalar moliyaviy samaradorligini rivojlantirish hamda Iqtisodiy natijalarni kapital bilan bog‘lab baholash mexanizmlari.

7.TFP – umumiy faktor unumdorligi indeksi tavsiya qilinadi. Bunda: Endogen

o'sish nazariyasi metodologiyasi, Mehnat va kapitalni hisobga olgan innovatsiya unumdorligi hamda Makro va mezo daraja orqali Texnologik samaradorlik va innovatsiya ta'sirini o'lchaydi va baholaydi.

8. SWOT–SAMARADORLIK tahlili orqali Iqtisodiy strategik tahlil nazariyasi ikki omil orqali ya'ni Ichki va tashqi imkoniyat shuningdek, xavflar mavjudligi Tarmoq rivojlanishi, raqobat ustunligi, Korxonalar yoki tarmoq samaradorligi uchun strategik yo'nalishlarni aniqlash mexanizmlari.

Iqtisodiy samaradorlikni baholash masalasi sanoat iqtisodiyotining eng muhim va metodologik jihatdan murakkab sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu kategoriyani aniqlashda va tahlil etishda faqat oddiy moliyaviy yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan cheklanish o'rinsiz bo'lib, tizimli va ilmiy yondashuvni talab etadi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun nazariy maktablar tomonidan turli modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni shartli ravishda klassik statik modellar va zamonaviy dinamik modellar deb ikki toifaga ajratish mumkin.

Klassik statik modellar, ayniqsa XX asr ikkinchi yarmida keng qo'llangan bo'lib, ularda asosiy e'tibor "resurs–natija" nisbatiga qaratiladi. Bunday yondashuvlarda mehnat unumdorligi, resurs qaytarimi, rentabellik, ROI va ROA kabi ko'rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikning asosiy ifodasi sifatida baholanadi. Ular turli sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lsa-da, sanoat singari dinamik va texnologik jihatdan faol rivojlanayotgan tarmoqlarda bu modellar yetilmaydigan nuqtalarga ega. Bu sababli keyinchalik dinamik modellashtirish usullari, ya'ni vaqt, innovatsiya, masshtab va tarmoqlararo ta'sir kabi omillarni hisobga oluvchi modellar rivojlandi.

Bunday zamonaviy modellar orasida Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi muhim o'rin tutadi. U kapital va mehnat omillarining ishlab chiqarish natijalariga ta'sirini logarifmik funksiya asosida modellashtirishga imkon beradi. Bu model umumiy faktor unumdorligi (TFP) orqali texnologik o'zgarishlarni ham qamrab oladi, bu esa sanoat samaradorligini innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan baholashda ahamiyatlidir.

Boshqa muhim modellardan biri – AHP–TOPSIS kabi integral baholash usullari bo'lib, ular ko'p mezonli va subyektiv komponentlarga ega iqtisodiy jarayonlarni tahlil etishda keng qo'llaniladi. AHP (Analytic Hierarchy Process) usuli iyerarxik tizim orqali qaror qabul qilishni modellashtirsa, TOPSIS (Technique for Order of Preference by Similarity to Ideal Solution) idealga yaqinlik asosida obyektlarni reytinglash imkonini beradi. Ushbu modellar sanoat korxonalarini samaradorlik darajasi bo'yicha o'zaro solishtirish, tarmoq ichidagi kuchli va zaif bo'g'inlarni aniqlash, hamda investitsiya resurslarini taqsimlashda optimal qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Sanoat iqtisodiyotidagi eng zamonaviy va metodologik jihatdan murakkab modellardan biri DEA (Data Envelopment Analysis) hisoblanadi. Bu model chiziqli dasturlash va samarali chegara nazariyasiga asoslangan holda texnik samaradorlikni

o‘lchaydi. DEA modeli ma’lumotlarga asoslangan ravishda korxonalarni “samarali” va “samarasiz” guruhlarga ajratishga imkon beradi va har bir obyektning shartli etalonga nisbatan baholaydi. Bu model sanoat korxonalarini kesimida qo‘llash uchun juda mos bo‘lib, turli xil ishlab chiqarish miqyosi va texnologik bazasiga ega subyektlar faoliyatini xolisona solishtirish imkonini beradi.

Samaradorlikni aniqlashdagi zamonaviy yondashuvlar, shunga ko‘ra, makro (milliy iqtisodiyot), mezo (tarmoq darajasi) va mikro (korxonalar darajasi)dagi tahlillarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Makro darajada samaradorlik ichki yalpi mahsulotda sanoat ulushi, eksport hajmi, tarmoqlararo transmissiya mexanizmlari orqali baholanadi.

Mezo darajada sanoat ichidagi tarmoqlar –kimyo, to‘qimachilik, mashinasozlik kabi – alohida o‘rganiladi. Mikro darajada esa korxonalarining quvvatdan foydalanish darajasi, texnologik yangilanishga sarflangan investitsiyalar, resurs sarfi va ishchi kuchi unumdorligi asos qilinadi.

Umumlashtirib aytganda, iqtisodiy samaradorlikni baholashda turli nazariy modellardan uyg‘un va maqsadli foydalanish, ularni real sanoat sharoitiga moslashtirgan mexanizmlar zaruratini tadbiiq etish, ilmiy tahlilning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarimiz doirasida esa bir nechta modeldan foydalangan holda kompleks yondashuv yaratish, sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha amaliyotga qo‘llash mumkin bo‘lgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Bunda samaradorlik tizimli takomillashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
- 2.Ernazarov G‘.B. Sanoatda ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari // “Ekonomika” nauchno-analicheskiy elektronnyy jurnal. Vypusk №2, iyul 2022 g.
- 3.Kalandarov S. Sanoatning rivojlanish modeli va innovatsion mexanizmlari. – T.: Iqtisodiyot va ta’lim, 2019. – 248 b.
- 4.Thomas R.L. Modern econometrics. - England.: Manchester Metropolitan University, 1998. – 211 p.
- 5.Porter M. Millatlar raqobatbardoshligi. – Nyu-York: Free Press, 1990. – 896 b.
- 6.Maxmudov N., Butabayev M., Xaitqulov A. Hududning qayta ishlash sanoati potensialidan samarali foydalanish yo‘llari / “O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to‘plami, T.: TDIU, 2018, 422 b.
- 7.Mahmudov M.F. O‘zbekistonning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholash // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №1, 2019, 2 b.

8.Salimov B.B. Canoat maxsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №3, 2018, 11 b.

9.UNIDO. Pocket Guide to World Statistics. 2022. SeriesV, N42. p.1-19.

10.Agentstvo stat. pri Prez.Res.Uzb. «Sotsialno-ekonomicheskoye polojeniye Respubliki Uzbekistan» za yanvar-dekabr 2023- goda. Tashkent – 2024 g. S.11.